



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР.....	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	



INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna

Qarshi davlat texnika universiteti

Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti katta o'qituvchisi

Email: dilnozaxoliqovna@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes korxonalarida inson kapitalini boshqarish xususiyatlari tahlil qilinadi. Inson kapitali tushunchasiga doir nazariy qarashlar va yondashuvlar keltirilgan. Shuningdek, inson kapitali tushunchasi, mohiyati hamda korxona miqyosida ahamiyati masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, nazariyalar, mehnat, xodimlarni boshqarish, usullar, resurslar, menejer, bilim, malaka.

Abstract. The article analyzes the features of human capital management in small businesses. Theoretical views and approaches to the concept of human capital are presented. The concept of human capital, its essence and significance at the enterprise level are also disclosed.

Key words: human capital, theories, labor, personnel management, methods, resources, manager, knowledge, skills.

Аннотация. В статье анализируются особенности управления человеческим капиталом на предприятиях малого бизнеса. Представлены теоретические взгляды и подходы к понятию человеческого капитала. Также раскрыто понятие человеческого капитала, его сущность и значение на уровне предприятия.

Ключевые слова: человеческий капитал, теории, труд, управление персоналом, методы, ресурсы, менеджер, знания, навыки.

KIRISH

Insoniyatning barqaror rivojlanishining yangi nazariyalari va BMT mutaxassislari tomonidan taklif etilgan milliy bo'lylik konsepsiyasi insonni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb tan olishga asoslanadi. Bu konsepsiya avloddan avlodga o'tib kelayotgan ishlab chiqarish kuchlari va bilimlarini to'plash hamda ulardan samarali foydalanish jarayonini qamrab oladi [1]. Bu holat bilimlarni inson kapitaliga aylantirish darajasiga yuqori talablarni qo'yadi. Shu bois "salohiyat" va "kapital" tushunchalarini farqlash zarur.

Bu tushunchalar mazmuni va qo'llanilishi jihatidan farqlanadi. "Salohiyat" tushunchasi (lotincha potentia — kuch, qudrat) ma'lum bir sohada mavjud bo'lgan vositalar, imkoniyatlar va resurslar yig'indisini anglatadi, ya'ni salohiyat yashirin va hali amalga oshirilmagan imkoniyatlarni bildiradi.

"Kapital" tushunchasi esa (lotincha capitalis — asosiy) iqtisodiy kategoriya sifatida mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hamda daromad olish uchun foydalaniladigan, inson tomonidan yaratilgan resurslarni, ya'ni kapitalni amalga oshirish imkonini beradigan potentsialni anglatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Inson kapitali" tushunchasidan foydalanish ijtimoiy institutlarning rolini tushunishga, nafaqat ijtimoiy parametrlarni aniqlashga, balki bozor iqtisodiyotiga ijtimoiy omil ta'sirini iqtisodiy tahlil qilish imkonini beradi.

Bu konsepsiya ijtimoiy takror ishlab chiqarish kategoriyasi sifatida quyidagicha ta'riflanadi: "Inson kapitali — tizimli tarkibiy va funksional tashkil etilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarishning murakkab kategoriyasidir". A. Dobrinin inson ishlab chiqaruvchi kuchlari tarkibida ikki tomonni: ishchi kuchi (yoki mehnat qobiliyati) va iste'molchi kuchi (yoki iste'mol qilish qobiliyati)ni farqlash kerak deb hisoblaydi [4]. Uning fikricha, mehnat ishchi kuchining, iste'mol esa iste'molchi kuchining funksiyasidir. S. Dyatlov ham tirik inson shaxsining eng muhim xususiyatlari inson ishlab chiqaruvchi kuchlari tarkibiga kiruvchi mehnat qobiliyati va iste'mol qilish qobiliyati ekanini ta'kidlaydi [3].

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar inson kapitali tushunchasini ta'riflashda tor va juda keng talqinlardan foydalanadilar. Jumladan, ularning ba'zilar faqat ta'lim komponenti bilan cheklangan (T.O. Razumova, S.Yu.



Roshchin va A.G. Svetlakov). Ayrim yondashuvlarda konsepsiyaga doir madaniy-axloqiy tamoyillar va salomatlik tushunchalari kiritilgan (S.A. Dyatlov, G.Yu. Pehtereva, E.V. Ovsyannikov). Fikrimizcha, mazkur yondashuvlarda inson kapitali ishlab chiqaruvchi kuch sifatida, shaxsning salomatligi va qobiliyatini to'liq hisobga olmagan holda aks ettirilgan.

V. Bouen, G. Bekker, E.N. Golovanova, S.A. Dyatlov, T.G. Myasoedova, S.O. Palkinning individual ta'riflari "xodimning ishlab chiqarish fazilatlar va motivatsiyasining tarkibiy elementlari" sifatida beriladi [5]. Ularning qarashlarida inson kapitali tashuvchisining sog'lig'i holati, shuningdek, kapitaldan foydalanish davrida daromad olish zarurati hisobga olinmagan.

G. Bekker, V.M. Galperin, S.A. Dyatlov va Yu.A. Korchagin "inson kapitali" tushunchasiga qo'shimcha ravishda investitsiyalarni ham kiritadilar. S. Fisher, I.V. Ilyinskiy, M.M. Kritskiy, T.G. Myasoedova esa ularni ushbu konsepsiya mazmuniga kiritmaydilar. Ularning yondashuvlarida ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan investitsiyalar hisobga olinmagan va "inson kapitalidan foydalanish"ning yakuniy natijasi aks ettirilmagan, shuningdek, insonlarning qobiliyatlari hamda mehnat orqali daromadni oshirish zarurati inobatga olinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida tizimli va statistik tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, grafik talqin, taqqoslash, ekspert baholash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Inson kapitali" tushunchasining muhim xususiyatlarini ko'rib chiqish uchun uni mehnat va mehnat munosabatlari sohasidagi o'xshash tushunchalardan ajratib, biz tomondan mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi eng muhim tushunchalar tasniflandi (1-jadval).

1-jadval. Mehnat sohasiga oid ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalar tasnifi¹

Tushunchalar	Ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni
Mehnat resurslari	"Iqtisodiy faol, mehnatga layoqatli aholi, aholining mehnat faoliyatida ishtirok etish uchun jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarga ega bo'lgan qismi" [6]
Ishchi kuchi	Insonning mehnat qobiliyati, inson o'z faoliyatida foydalanadigan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarning yig'indisi
xodimlar	Tashkilotning yollangan va ma'lum kasbiy va shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lgan xodimlari
Mehnat salohiyati	Mehnatga layoqatli aholi soni, uning kasbiy va ta'lim darajasi va boshqa sifat ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadigan hozirgi va yaqin kelajakdagi mehnat imkoniyatlari [6]
Kadrlar salohiyati	Daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish uchun ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatining turli sohalarida
	qo'llanilishi mumkin bo'lgan xodimlarning ko'nikmalari va qobiliyatlari.
Inson omili	Jamiyatdagi kishilarning tarixan shakllangan asosiy ijtimoiy sifatleri majmui: qadriyat ko'rsatmalari; axloqiy tamoyillar; mehnat, dam olish, iste'mol sohasidagi xatti-harakatlar normalari; bilim va xabardorlik darajalari; mehnat va ijtimoiy malakalarning tabiati va boshqalar.
Inson kapitali	«Insonning daromad olish uchun mehnat jarayonida foydalaniladigan bilimlari, sog'lig'i, ko'nikmalari, tajribasi» [2].

Ushbu jadvallar har bir konsepsiyadan foydalanish ko'lamidagi farqlarni ko'rsatadi. Yuqoridagi tushunchalarni tahlil qilish inson kapitalining eng muhim mezonini uning shaxsiga, tashkilotga va jamiyatga olib keladigan daromadi ekanligi haqidagi xulosaga olib keladi. Zamonaviy jamiyatda inson kapitali nafaqat iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili, balki asosiy qadriyat hisoblanadi. Bu kapital sifatida to'planishi va rivojlanishi mumkin: inson o'zining ko'nikmalarini oshirishi, bilimlarini kengaytirishi va sog'ligini yaxshilashi mumkin.

Biroq, ta'kidlanganidek, inson kapitali ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirish xususiyatiga ega. "Insonning bilimi eskiradi, ya'ni inson kapitalining qiymati mavjudlik jarayonida iqtisodiy jihatdan o'zgaradi va inson kapitali qadrsizlanadi" [9].

1 Muallif ishlanmasi



Inson kapitalining o'ziga xos xususiyatlari boshqa kapital turlariga o'xshash bo'lib, quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- shaxsni tarbiyalash va o'qitish xarajatlari real xarajatlardir;
- inson mehnati mahsuli milliy boylikni oshiradi;
- kishi boshiga sarflangan mablag' milliy boylikni ham oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, inson kapitali boshqa kapital turlaridan ajralib turadigan bir qator alohida xususiyatlarga ega bo'lgan kapitalning noyob turi sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

1. "Inson kapitali uning tashuvchisi shaxsidan ajralmasdir." Moddiy va moliyaviy aktivlardan (uskunalar, ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar) farqli o'laroq, zamonaviy jamiyatda inson savdo subyekti bo'la olmaydi. Natijada, bozor faqat inson kapitalidan foydalanish narxlarini (ish haqi stavkalari ko'rinishida) belgilaydi, ammo uning aktivlari uchun belgilangan narx mavjud emas. Shu sababli, inson kapitali minimal likvidlik darajasiga ega.

2. "Inson kapitali uzoq muddatli investitsiya davriga ega." Inson kapitaliga sarmoya kiritishning asosiy shakli sifatida ta'limga investitsiya davri oddiy kapitalni qoplash muddatidan o'rtacha 10 baravar uzun.

3. "Inson kapitaliga sarmoya kiritish risklari jismoniy kapitalga nisbatan yuqoriroqdir." Odamlarning joylashuvi o'zgarishi va uzoq muddatli qaytuv muddati, mehnat bozori sharoitining o'zgaruvchanligi hamda sug'urtalash mexanizmlarining cheklanganligi bunday risklarning asosiy sabablari hisoblanadi.

4. To'plangan sari daromadi sekin kamayuvchi jismoniy kapitaldan farqli ravishda, inson kapitaliga investitsiyalar rentabelligi oshib boradi, lekin mehnatga layoqatli yosh bilan cheklanadi. Inson kapitalidan olinadigan daromad pul shaklida ham, pulsiz shaklda ham bo'lishi mumkin, bu esa iste'molchi jihatlarining ahamiyatini oshiradi.

5. Inson kapitali tabiiy resurslar va boshqa kapital turlaridan farq qilib, doimiy ravishda investitsiyalarni oshirishni talab qiladi. Agar inson kapitali yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, yuqori texnologiyali sohalarga investitsiyalar kam samaradorlikka ega bo'ladi. Shuningdek, inson kapitaliga uzoq muddatli investitsiyalar deyarli barcha sohalarda istiqbolli va yuqori daromadli hisoblanadi.

6. Inson kapitali jismoniy kapitaldan likvidlik darajasi bilan farqlanadi, chunki inson kapitali uning tashuvchisi bo'lmish shaxsdan ajralmasdir.

7. "Inson kapitali miqdori" nafaqat uning hozirgi holatiga, balki foydalanishning kutilayotgan muddatiga va kapital tashuvchining rivojlanish qobiliyatiga ham bog'liq.

8. Inson kapitaliga investitsiyadan olingan daromadlar, investitsiya manbasidan qat'i nazar, shaxsning o'zi tomonidan nazorat qilinadi.

9. Individual inson kapitalining faoliyat muddati cheklangan.

10. Inson kapitalining ishlashi va rivojlanishi uning tashuvchisi — shaxsga va u qabul qiladigan qarorlarga bevosita bog'liqdir. Inson kapitalidan olinadigan daromad darajasi ham shaxsning moddiy va ma'naviy manfaatlariga, dunyoqarashiga va madaniyat darajasiga bog'liqdir.

11. Inson kapitali moddiy va nomoddiy rag'batlantirish vositalarini talab qiladi.

"Inson kapitali" ta'rifini aniqlashtirish uchun quyidagi yondashuvlar tasnifi taklif etiladi. Bu yondashuvlar "inson kapitalining ta'rifi berilgan tushuncha" kabi qo'shimcha xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, "inson kapitalidan foydalanish natijasida iqtisodiy foyda olish imkoniyati", "inson kapitalining tabiati va iqtisodiy foyda yaratishdagi roli" hamda "inson kapitali tegishli bo'lgan iqtisodiy kategoriya" kabi omillar ham o'z aksini topadi.

Kichik biznes korxonalarida inson kapitali — bu resurs bo'lib, xodimlarning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlari hamda ko'nikmalari, shu jumladan sog'lig'i, aql-zakovati, bilimi, tajribasi va ijodkorligi bilan belgilanadigan, uning mehnat samaradorligi hamda korxona maqsadlariga erishish bo'yicha majburiyatlarida mujassamlangan iqtisodiy qiymatdir.

Mazkur ta'rif inson kapitalining tizimli xususiyatlarini, ya'ni xodimning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlari va ko'nikmalarini, kognitiv tabiatini, investitsiyalar orqali jamg'arish xususiyatini ko'rsatishi, ishni samarali bajarishga intilishi bilan mavjud ta'riflardan farqlanadi.

Ijtimoiy boylik sifatida inson tabiiy hamda moddiy kapitalning uyg'unlashuviga asoslanadi. Jahon banki mutaxassislari tomonidan 192 mamlakatda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, inson kapitali umumiy boylikning o'rtacha 64 foizini, jismoniy kapital — 16 foizini va tabiiy kapital — 20 foizini tashkil qiladi. Germaniya, Shvetsiya va Yaponiyada milliy boylik tarkibida inson kapitalining ulushi 80 % ga yetadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida ishlab chiqarish fondlari milliy boylikning 19 %, tabiiy resurslar — 5 %, inson kapitali — 76 % ulushga ega [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson kapitali tushunchasini yuqoridagi tushunchalar bilan taqqoslaganda, inson kapitalining negizini ishchi kuchi, shaxsning jismoniy va aqliy qobiliyatlari tashkil etadi. Ishchi kuchida ham inson kapitali mavjud bo'lib, bu tushuncha inson resurslarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy inson kapitalining sifati esa mamlakatning



mehnat salohiyati bilan belgilanadi, ya'ni mamlakatdagi mehnat resurslari va ularning rivojlanish darajasi milliy inson kapitalining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Inson kapitalining asosiy manbalari — inson resurslari va ularning salohiyati hisoblanadi. Ammo inson resurslari va salohiyatining inson kapitaliga aylanishi uchun zarur shart-sharoitlar kerak bo'ladi. Inson resurslarini boshqarishning asosiy maqsadi xodimlar bilan bog'liq xarajatlarni optimallashtirishdir, inson kapitalini boshqarish esa uzoq muddatli investitsiyalarning oqibatlarini baholash va boshqarishni ta'minlaydi.

Inson kapitalini boshqarish jarayoni ma'lum iste'dod va malakalarni rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni oshirish uchun sarmoya kiritishni o'z ichiga oladi. Bu natijada xodimning qiymatini oshirib, uzoq muddatli iqtisodiy foydani ko'zlaydi. Ammo inson kapitaliga xos tabiiy qobiliyatlar faqat shaxsiy sa'y-harakatlar asosida rivojlanadi. Biroq, inson kapitalini takomillashtirish natijalari faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan belgilanmaydi, chunki bu natijalar boshqa (madaniy, estetik, mafkuraviy, diniy) maqsadlarga ham xizmat qilishi mumkin va faqat bilvosita iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi.

Inson kapitalining doimiy va o'zgaruvchan komponentlariga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Masalan, doimiy komponentning yomonlashuvi umumiy kasallanishning ko'payishi, aholining qarishi yoki o'rtacha umr ko'rish muddatining qisqarishi kabi obyektiv omillar tufayli sodir bo'lishi mumkin. Shuningdek, shartli o'zgaruvchan komponent odatda o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, bu har doim ham inson kapitali qiymatining o'sishiga olib kelmaydi.

Qo'shimcha ta'lim olish, malaka oshirish yoki tajribani boyitishga yo'naltirilgan investitsiyalar avtomatik ravishda ish haqi yoki daromadning oshishiga olib kelmaydi va bu o'z navbatida boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishini kafolatlay olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Боргардт, И.Ф. «Повышение эффективности использования человеческого капитала в свеклосахарном производстве: на материалах Алтайского края: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.01» [Электронный ресурс] / Боргард Ирина Федоровна. — Новосибирск, 2017. — Режим доступа: dlib.rsl.ru.
2. Голованова, Е.Н. «Формирование модели эффективного использования инвестиций в человеческий капитал организаций: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05» / Голованова Елена Николаевна. — Нижний Новгород, 2008. — 131 с.
3. Добрынин, А.И., Дятлов, С.А., Курганский, С.А. «Методология человеческого капитала» // Экономика образования: Международный периодический научный журнал. — 1999. — С. 10.
4. Добрынин, А.Н., Дятлов, С.А., Цыренова, Е.Д. «Человеческий капитал в транзитивной экономике: формирование, оценка, эффективность использования». — СПб.: Наука, 1999. — 309 с.
5. Палкина, С.О. «Формирование и использование человеческого капитала в сельском хозяйстве: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05» / Палкина Светлана Олеговна. — Пермь, 2014. — 232 с.
6. Райзберг, Б.А., Лозовский, Л.Ш., Стародубцева, Е.Б. «Современный экономический словарь» / 6-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2017. — 512 с.
7. Русакова, З.К. «Дополнительные источники финансирования репродуктивного сектора домашнего хозяйства».
8. Сеницына, Г.И. «Человеческий капитал, оценка качества и эффективности использования: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05» [Электронный ресурс] / Сеницына Галина Иннокентьевна. — Иркутск, 2002. — 144 с. — Режим доступа: dlib.rsl.ru.
9. Тактарова, С.В., Тугускина, Г.Н. «Управление формированием человеческого капитала в условиях инновационного развития экономики» [Электронный ресурс]. — Монография. — Москва: Русайнс, 2017. — 214 с. — Режим доступа: book.ru.
10. Русакова, З.К., Лаврентьева, И.В. «Дополнительные источники финансирования репродуктивного сектора домашнего хозяйства» // Вопросы экономической теории. Макроэкономика. — 2011. — № 1. — С. 86.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>